

## ANTIK FALSAFADA INSONPARVARLIK VA SUBSTANSIONALLIK G'UYALARINING RIVOJLANISHI: SUQROT, AFLOTUN, ARASTU VA BOSHQA FALSAFIY MAKTABLAR TAHLILI

*Mirzaxolov Nodirbek Tojiboyevich*

*Namangan davlat universiteti,*

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: nodirbek\_mustaf@mail.ru*

*ORCID ID <https://orcid.org/0009-0008-1906-3227>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada antik falsafaning insonparvarlik va substansionallik g'oyalari tizimli tahlil qilinadi. Qadimgi Yunoniston falsafasida inson mohiyati, uning dunyodagi o'rni va borliq bilan munosabatlarini anglash bosqichlari Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikur, stoitsizm, skeptitsizm va neo-aflotunchilik ta'limotlari misolida yoritilgan. Maqolada Suqrotning "o'zingni angla" tamoyili va "fazilat – bu bilimdir" tezisi, Aflotunning g'oyalar olami va inson ruhining abadiy substansiyasi haqidagi ta'limoti, Arastuning birinchi va ikkinchi substansiyalar haqidagi nazariyasi hamda uning "inson siyosiy hayvondir" degan tamoyili tahlil qilingan. Shuningdek, Epikurning baxt va zavq falsafasi, stoitsizmning taqdirga bo'ysunish va ichki erkinlik haqidagi qarashlari, skeptitsizmning bilish chegaralari va hukmdan voz kechish tamoyili hamda neo-aflotunchilikning Yagona va inson ruhining yuksalishi haqidagi ta'limoti o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Antik falsafa, insonparvarlik, substansionallik, Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikurchilik, stoitsizm, skeptitsizm, neo-aflotunchilik, o'zingni angla, g'oyalar olami, birinchi substansiya, logos, ataraksiya, evdemonizm.

Antik davr falsafiy tafakkuri inson mohiyatini, uning dunyodagi o'rni va borliq bilan munosabatlarini anglashda muhim bosqich bo'ldi. Ushbu davrda shakllangan insonparvarlik g'oyalari keyingi barcha sivilizatsiyalar taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qildi. Antik falsafaning asosiy ahamiyati shundaki, u "insonni bevosita kuzatish va tahlil qilish uchun mustahkam zamin yaratib beradi"<sup>1</sup>. Aynan shu davrda inson o'z-o'zini anglash, o'zining ichki dunyosi va qadr-qimmatini tushunish sari muhim qadam tashlangan. Antik falsafaning insonparvarlik tamoyillari – insonni "hamma narsaning o'lchovi" deb talqin etish (Protakor), "o'zingni angla" degan hikmat (Suqrot), shaxsning jamiyat va davlat bilan munosabatlarida uyg'unlikka erishish (Aflotun) va insonning eng yuksak baxt-saodatga erishish yo'llari (Arastu) kabi g'oyalarda ifodalangan.

<sup>1</sup> Piette, A. Parmenides, Plato, Aristotle: Essay on the foundations of an existential anthropology // Agathos: An International Review, Volume 15, Issue 1 (28): 7-22, 2024. – P 8.

Suqrot (mil.avv. 470-399) falsafasini insonparvarlik tushunchasining tub burilish nuqtasi deb hisoblash mumkin. U sofistlarning “inson hamma narsaning o‘lchovidir” degan tezisini yanada chuqurlashtirib, falsafani tabiat masalalaridan insonning o‘ziga, uning ma’naviy dunyosi va axloqiy tamoyillariga qaratdi. “O‘zingni angla” – bu Suqrot falsafasining asosiy shiori bo‘lib, u insonning substansial (mohiyatli) tomonini – ya’ni uning jismoniy emas, balki ruhiy-ma’naviy o‘zagini bilishga qaratilgan edi.

Suqrotning fikricha, insonning mohiyati (substansiyasi) uning tashqi ko‘rinishida yoki ijtimoiy mavqeida emas, balki uning aqli va ma’naviy fazilatlaridadir. U “fazilat – bu bilimdir” degan taniqli tezisni ilgari surdi: inson yaxshilik nimaligini bilsagina, uni amalga oshirishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotchi A.A.Longning ta’kidlashicha, “Suqrot uchun eng muhim narsa insonning o‘z qadr-qimmatini anglashi va yaxshilik haqidagi bilimni amaliyotga tatbiq etishidir”<sup>2</sup>. Suqrot ta’limotida insonparvarlikning eng muhim jihati shundaki, u har bir shaxsning qadr-qimmari va o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Suqrot maievtika (savol-javob) usuli orqali suhbatdoshining ongida haqiqatni topishga yordam berardi. Bu esa insonning ichki menini anglab yetishining eng samarali usuli hisoblanadi.

Suqrotning “hech kim bila turib yomonlik qilmaydi” degan g‘oyasi inson tabiatiga bo‘lgan chuqur ishonchni ifodalaydi – uning nazarida inson mohiyatan yaxshilikka intiluvchi zotdir. Ushbu fikrni tahlil qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, Suqrot insonning noto‘g‘ri xatti-harakatlarini bilimsizlik bilan izohlaydi. Bu esa ta’lim jarayonining ahamiyatini keskin oshiradi: agar inson bilim orqali yaxshilikka erisha olsa, unda ta’limning asosiy vazifasi aynan shu bilimni berishdan iborat. Pedagogik nuqtai nazardan, bu yondashuv o‘quvchilarda axloqiy ongni shakllantirishda bilimning rolini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Aflotun (mil.avv. 428/7-348/7) o‘z ustozining an‘analarini davom ettirar ekan, insonparvarlik va substansionallik masalalarini butunlay yangi, metafizik nuqtai nazardan talqin qildi. Uning ta’limotiga ko‘ra, haqiqiy borliq (substansiya) moddiy dunyoda emas, balki “g‘oyalar olami”da – ya’ni abadiy, o‘zgarmas va mukammal substansiyalardir. Aflotun “substansiya” (yunoncha *ousia*) tushunchasini falsafaga chuqur singdirgan. Nemis faylasufi G.Gadamer ta’kidlaganidek, “Aflotun uchun substansiya muammosi narsalarning mohiyatini tushunish bilan bog‘liq bo‘lib, bu Yevropa metafizikasining asosiy masalasiga aylangan”<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Long, A.A. Ellinistik falsafa: stoiklar, epikurchilar, skeptiklar / Ingliz tilidan tarjimon M.Mirzaahmedov. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006. – B 67.

<sup>3</sup> Gadamer, G. Platon dialektik etikasi / Nemis tilidan tarjimon S.Ahmedov. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1986. – B 45.

Aflotun insonni dualistik (ikki qisimli) mavjudot deb tushunadi: tana (moddiy, o'tkinchi) va ruh (g'oyaviy, abadiy substansiya). Insonning asl mohiyati uning ruhidir, chunki ruh g'oyalar olamiga mansub va tanadan oldin mavjud bo'lgan. Aflotunning G'or "allegoriyasi" bu borada juda muhimdir: unda u odamlarning ko'pchiligi faqat "soylar"ni – ya'ni moddiy dunyoning yuzaki ko'rinishlarinigina ko'rib yashashini, asl haqiqatni (g'oyalar substansiyasini) anglash esa falsafiy tafakkur orqali mumkinligini ko'rsatadi.

Aflotunning "Davlat" asarida ifodalangan ideal jamiyat konsepsiyasi ham insonparvarlik g'oyasining yuksak ifodasidir: unda u adolat, donolik, jasurlik va mo'tadillik kabi asosiy fazilatlarga asoslangan tuzumni yaratishni taklif qiladi. Aflotun faylasuflarning hokimiyat tepasida bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, chunki faqat ular haqiqiy substansiyani – g'oyalar mohiyatini anglagan holda, adolatli boshqaruvni amalga oshirishi mumkin. Aflotunning insonparvarlik tamoyili insonni faqat jismoniy mavjudot sifatida emas, balki abadiy, ruhiy va aql-zakovatli substansiya sifatida qarashga asoslangan.

Aflotun "Faydr" dialogida ruh haqida shunday deydi: "Har qanday ruh o'lmasdir, chunki u doimo harakatda bo'ladi... O'z-o'zidan harakat qiladigan narsa o'lmasdir"<sup>4</sup>. Ushbu fikrni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, Aflotun insonning ruhiy substansiyasini abadiy deb talqin qilish orqali ta'limning maqsadini muhim darajada o'zgartirgan: ta'lim faqat amaliy ko'nikmalarni shakllantirish emas, balki insonning abadiy ruhini mukammallashtirishga xizmat qilishi kerak. Bugungi ta'lim tizimida bu g'oya "ta'lim orqali shaxsni rivojlantirish" konsepsiyasining asosini tashkil etadi.

Arastu (mil.avv. 384-322) substansionallik tushunchasini falsafa tarixida eng mukammal darajada ishlab chiqqan mutafakkirdir. U o'zining "Kategoriyalar" asarida substansiyani (mohiyat) "boshqa hech narsaga zid bo'lmagan, aksincha, boshqa barcha narsalar unga zid bo'lgan eng asosiy mavjudot" deb ta'riflaydi. Mashhur ingliz faylasufi B.Rassel ta'kidlaganidek, "Arastuning substansiya haqidagi ta'limoti butun G'arb metafizikasining asosiga aylangan"<sup>5</sup>.

Arastu substansiyani birinchi va ikkinchi substansiyalarga ajratgan holda tahlil qiladi: birinchi substansiya – bu aniq, individual mavjudot (masalan, "bu inson", "bu ot"); ikkinchi substansiya esa – bu individual mavjudotlarning tur va jinslari (masalan, "inson", "jonzot"). Arastu uchun haqiqiy borliq aynan birinchi substansiyalardir – ya'ni alohida, mustaqil mavjudotlar. "Metafizika" asarida u substansiyani "shakl" va "materiya" birligi sifatida tushuntiradi. Masalan, inson – bu jism (materiya) va uning inson qiluvchi xususiyat – aql (shakl) ning birligidir.

<sup>4</sup> Platon. Faydr / Yunon tilidan tarjimon A.Safarov. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005. – 144 b.

<sup>5</sup> Rassel, B. G'arb falsafasi tarixi / Ingliz tilidan tarjimon H.Nazarov. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. – 880 b.

Arastu ta'limotida insonparvarlik g'oyasining eng yorqin ifodasi uning "inson siyosiy hayvondir" degan mashhur ta'rifidir. O'zbek faylasufi M.Xayrullayev ta'kidlaganidek, "Arastu insonning mohiyatini faqat biologik emas, balki ijtimoiy va siyosiy mavjudot ekanligida ko'radi. Bu esa insonni o'rab turgan jamiyat va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi"<sup>6</sup>. Arastuga ko'ra, inson o'z substansiyasini – ya'ni to'liq inson bo'lishni – faqat jamiyat ichida, boshqalar bilan muloqot va hamkorlikda amalga oshirishi mumkin.

Arastu "Nikomax etikasi" asarida shunday yozadi: "Baxt (evdemoniya) – bu o'z-o'zidan maqsad bo'lgan va boshqa hech narsaga bog'liq bo'lmagan faoliyatdir. Inson baxtiga aqlning faoliyati orqali erishadi"<sup>7</sup>. Ushbu fikrga quyidagicha munosabat bildirish mumkin: Arastu uchun baxt – bu tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan, insonning ichki substansiyasidan kelib chiqadigan holatdir. Pedagogik nuqtai nazardan, bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirish, ularni bilim olishning o'zini maqsad qilib qo'yishga o'rgatish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Arastuning "aql baxtning asosiy manbai" degan g'oyasi zamonaviy ta'limda tanqidiy fikrlash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asosini tashkil etadi.

Epikur (mil.avv. 341-270) falsafasi antik davr insonparvarligining yana bir muhim yo'nalishini ifodalaydi. Epikurchilik ta'limotining markazida insonning baxt-saodati, zavq va og'riq masalalari turadi. "Epikur zavqni baxtli hayotning mohiyatiga aylantirgan, ammo u bu bilan buzuqlik va axloqsizlikni targ'ib qilmagan"<sup>8</sup>. Haqiqatan ham, Epikur baxtga erishish uchun oddiy zavqlar yetarli deb hisoblagan.

Zamonaviy tarixchi va yozuvchi Z.Krissman Epikur haqida shunday yozgan: "Epikur bag'ishlangan materialist va atomist edi. U tana o'lganidan keyin hech narsa omon qolmasligini, inson tugallanganini va bu haqiqat bilan murosaga kelish kerakligini ta'kidladi"<sup>9</sup>. Epikurning ushbu materialistik dunyoqarashi uning insonparvarlik tushunchasining asosini tashkil qiladi: o'limdan keyingi hayot mavjud bo'lmagani uchun, inson o'z baxtini aynan shu hayotda, shu dunyoda qurishi kerak.

Epikurning fikricha, do'stlik baxtli hayotning markaziy omilidir. U o'zining "Meneveyga maktub" asarida shunday yozgan: "Donishmand kishi na hayotni rad etadi, na o'limdan qo'rqadi. Chunki yashash uni ranjitmaydi va u yashamaslikni yomon narsa deb hisoblamaydi. Va u qat'iy ravishda eng katta miqdordagi ovqatni emas, balki eng yoqimli ovqatni tanlagani kabi, eng uzoq vaqtni emas, balki eng yoqimli vaqtni

<sup>6</sup> Xayrullaev, M. Qadimgi Yunon falsafasi tarixi / Mas'ul muharrir A.Shermuhamedov. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2001. – B 112.

<sup>7</sup> Aristotel. Nikomax etikasi / Tarjimon va izohlar muallifi H.Hoshimov. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 320 b.

<sup>8</sup> "Epicureanism" // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/Epicureanism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)

<sup>9</sup> Krissman, Z. "The Cartoon History of Humanism, Episode 1: Epicurus and the Right to Party" // The Humanist, 2014. – ([https://thehumanist.com/arts\\_entertainment/humor/the-cartoon-history-of-humanism](https://thehumanist.com/arts_entertainment/humor/the-cartoon-history-of-humanism))

tanlaydi”<sup>10</sup>. Epikurning fikricha, do‘stlik baxtli hayotning markaziy omilidir. Ushbu iqtibosda Epikur hayot va o‘limga bo‘lgan donishmandona munosabatni ifodalaydi. U hayotni umuman rad etmaslikka, lekin undan qo‘rqmaslikka ham undaydi. Aslida, Epikur uchun muhim bo‘lgan narsa hayotning uzunligi emas, balki uning sifati – qanchalik yoqimli, mazmunli va baxtli o‘tkazilganidir. U ovqatni tanlashdagi o‘xshatish orqali juda sodda va tushunarli falsafiy tamoyilni ifodalaydi: eng ko‘p ovqat emas, eng yoqimli ovqat; eng uzoq hayot emas, eng yoqimli hayot. Bu tamoyil Epikurning “zavq” (hedone) tushunchasining noto‘g‘ri talqin qilinishiga – uni “buzuq zavq-safo” deb tushunishga – qarshi eng yaxshi dalildir. Epikur zavqni oddiy, mo‘‘tadil va ma‘naviy zavqlarda ko‘radi: do‘stlar bilan suhbat, tabiat go‘zalligi, bilim olish, og‘riq va tashvishlardan xoli bo‘lish. Pedagogik nuqtai nazardan, ushbu tamoyil o‘quvchilarga hayotning mazmuni, baxt va zavq haqida chuqur falsafiy tafakkur qilish imkonini beradi. U, ayniqsa, iste‘mol jamiyatida “ko‘proq”, “uzoqroq”, “kattaroq” tamoyillariga asoslangan hukmron dunyoqarashga qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin. Epikur insonni haddan tashqari ko‘p istaklar va tashvishlardan xalos bo‘lishga, oddiy va yoqimli narsalardan bahramand bo‘lishga, hayotning har bir daqiqasini qadrlashga undaydi.

Epikurning mashhur “Tetrafarmakon” (to‘rt karra dori) tamoyili: “Xudolardan qo‘rqma, o‘lim haqida qayg‘urma, yaxshi narsaga erishish oson, dahshatli narsaga chidash oson”<sup>11</sup>. Ushbu to‘rt qisqa tamoyil Epikur falsafasining butun mohiyatini ifodalaydi. Birinchidan, “xudolardan qo‘rqma” – Epikur xudolarning mavjudligini inkor etmaydi, lekin ular inson ishlariga aralashmaydi, deb hisoblaydi, shuning uchun ulardan qo‘rqishning hojati yo‘q. Ikkinchidan, “o‘lim haqida qayg‘urma” – o‘limdan qo‘rqish mantiqsiz, chunki biz tirikligimizda o‘lim yo‘q, o‘lim kelganda esa biz yo‘qmiz. Uchinchidan, “yaxshi narsaga erishish oson” – insonga baxt va xotirjamlik keltiradigan narsalar (oddiy ovqat, do‘stlar, bilim) osonlik bilan qo‘lga kiritiladi, ulkan boyliklar yoki shon-shuhratga intilishning hojati yo‘q. To‘rtinchidan, “dahshatli narsaga chidash oson” – og‘riq va azob-uqubatlardan, hatto ular kuchli bo‘lsa ham, odatda uzoq davom etmaydi, agar juda kuchli bo‘lsa, o‘lim bilan tugaydi, shuning uchun ularga chidash mumkin. Pedagogik nuqtai nazardan, ushbu tamoyil o‘quvchilarda stressga qarshi turg‘unlikni, hayotiy qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarda uchraydigan imtihon oldi tashvishlari, kelajak haqidagi noaniqliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi mukammallik bosimi bilan ishlashda Epikurning ushbu falsafiy yondashuvi samarali vosita bo‘lishi mumkin.

<sup>10</sup> Epikur. Meneveyga maktub / Yunon tilidan tarjimon T.Mahmudov. – Epikur. Epikurning asosiy aforizmlari asarida. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2000. – B. 34-36.

<sup>11</sup> Epikur. Meneveyga maktub / Yunon tilidan tarjimon T.Mahmudov. – Epikur. Epikurning asosiy aforizmlari asarida. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2000. – B. 34-35.

Stoitsizm mil.avv. III asrda Zenon (mil.avv. 334-262) tomonidan asos solingan falsafiy maktabdir. “Stoitslar uchun inson baxtining asosi tabiat bilan uygʻunlikda yashashdir. Inson uchun haqiqiy yaxshilik – fazilatga ega boʻlishdir; qolgan hamma narsa – boylik yoki qashshoqlik, sogʻliq yoki kasallik, hayot yoki oʻlim – mutlaqo befarqdir<sup>12</sup>. Stoitsizm taʼlimotiga koʻra, ehtiroslar (axloqsizlik his-tuygʻulari) barcha yomonliklarning sababidir, ular nima haqiqiy yaxshilik va nima emasligini baholashdagi xatoning natijasidir.

Zenonning fikricha, dunyoni ilohiy logos boshqaradi, bu logos dunyoni mukammal tartibda ushlab turadi. Insonlar bu tartibdan chetga chiqishi yoki unga qarshi isyon qilishi mumkin, ammo ular buni amalga oshirish bilan dunyo tartibini buzolmaydi, faqat oʻzlariga zarar yetkazishi mumkin. Keyinchalik bu taʼlimot Rim stoitsizmi vakillari – Seneka (mil.avv. 4 – mil. 65), Epiktet (mil. 55-135) va Mark Avreliy (mil. 121-180) tomonidan rivojlantirildi.

Amerikalik yozuvchi F.Edvords taʼkidlaganidek, “Rim imperatori Mark Avreliy oʻzining “Oʻzim haqimda” asarida oʻz fikrlarini qayd etgan va bu kitob insoniyat tarixidagi eng kuchli stoik falsafiy asarlardan biridir. Unda u boshqalarning fikrlari haqida qaygʻurmaslikka, oʻz hayotini tashqi baholashlarga bogʻlamaslikka undaydi”<sup>13</sup>. Mark Avreliy shunday degan edi: “Doimiy ravishda roziligini qidirayotgan odamlarni kuzating va ular qanday printsiplarga amal qilishini tekshiring. Agar siz ularning fikrlari va istaklarining manbalariga qarasangiz, ular keltirgan xafalikni na qoralaysiz, na ularni toʻxtatgan rozilikni orzu qilasiz”<sup>14</sup>.

Epiktetning “Oʻzingdagi narsalarni oʻzgartir, qolganlariga esa eʼtibor berma” degan tamoyili stoitsizmning asosiy gʻoyasini ifodalaydi: “Baʼzi narsalar bizga bogʻliq, baʼzilari esa bogʻliq emas. Bizga bogʻliq boʻlgan narsalar – fikrlar, istaklar, harakatlar; bizga bogʻliq boʻlmagan narsalar – tana, mulk, obroʻ, hokimiyat”<sup>15</sup>. Ushbu tamoyilni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilsak, stoitsizm oʻquvchilarda oʻz imkoniyatlari chegarasini anglash, oʻziga bogʻliq va bogʻliq boʻlmagan narsalarni farqlash qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy taʼlimda oʻz-oʻzini boshqarish va emotional intellektni rivojlantirishning muhim elementi hisoblanadi. Taʼlim jarayonida oʻquvchilarning oʻz kuchli va kuchsiz tomonlarini anglashlari, oʻz imkoniyatlarini toʻgʻri baholashlari ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarining muhim omilidir.

<sup>12</sup> “Stoicism” // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/Stoicism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)

<sup>13</sup> Edvords, F. Ancient Stoicism And Rational Psychology // American Humanist Association, 1995. – (<https://americanhumanist.org/what-is-humanism/ancient-stoicism-rational-psychology/>)

<sup>14</sup> Mark Avreliy. Oʻzim haqimda / Lotin tilidan tarjimon N.Komilov. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1991. – 176 b. (Mark Avreliy, Oʻzim haqimda, 6-kitob, 6-band)

<sup>15</sup> Epiktet. Qoʻllanma / Yunon tilidan tarjimon A.Gʻulomov. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1985. – 128 b.

Skeptitsizm mil.avv. IV asr oxirida Pirron (mil.avv. 360-272) tomonidan asos solingan falsafiy maktabdir. Skeptiklarning asosiy tezisi – hech kim hech narsaga to‘liq ishonch hosil qila olmaydi. Britannica entsiklopediyasida ta’kidlanishicha, “Pirron hech kim hech narsani aniq bila olmaydi, hatto o‘z sezgilari bilan idrok etayotgan narsalar haqiqatdan ham shunday yoki ular shunchaki illyuziya ekanligiga ishonch hosil qila olmaydi degan xulosaga kelgan”<sup>16</sup>.

Keyinchalik skeptitsizmning ikki yo‘nalishi shakllandi: Pirronchilik va Akademik skeptitsizm. Pirronchilik vakillari hech qanday hukm chiqarmaslikni targ‘ib qilganlar, akademik skeptitsizm vakillari (Arkesilay, Karnead) esa Aflotun akademiyasida har qanday bilish da‘volarini rad etganlar. Skeptitsizmning eng muhim vakili – III asrda yashagan Sext Empirik bo‘lib, uning “Dogmatiklarga qarshi” asari orqali skeptitsizm haqidagi bilimlar hozirgi kungacha yetib kelgan.

Pirronning “Hech narsani aniq bilaman deb aytma, hamma narsa shunchaki ko‘rinishdir” degan tamoyili skeptitsizmning asosini tashkil qiladi. Ushbu tamoyilga quyidagicha munosabat bildirish mumkin: Skeptitsizm o‘zining radikal shaklida dogmatizmga qarshi kurashgan va bilish jarayonining murakkabligini ko‘rsatgan. Pedagogik nuqtai nazardan, skeptitsizm o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni, olingan ma‘lumotlarga shubha bilan qarash va ularni tekshirish zarurligini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta’limda eng muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Biroq skeptitsizmning haddan ziyod radikal shakli o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan ishonchni pasaytirishi mumkin, shuning uchun ta’lim jarayonida skeptitsizm elementlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur.

Neo-aflotunchilik III asrda Ammoni Sakkas (175-242) va uning shogirdi Plotin (205-270) tomonidan asos solingan falsafiy maktabdir. Bu ta’limot Aflotun g‘oyalarini sharq mistitsizmi va Arastu mantiqi bilan uyg‘unlashtirgan. Britannica entsiklopediyasida ta’kidlanishicha, “Plotin bir necha borliq darajalari mavjudligini faraz qilgan, eng yuqori daraja Yagona yoki Yaxshilikdir... Inson uchun eng yuksak baxt Yagona bilan birlikdir, bunga tafakkur va poklanish orqali erishiladi”<sup>17</sup>.

Neo-aflotunizm ta’limotiga ko‘ra, borliq quyidagi darajalardan iborat: 1) Yagona (yoki Yaxshilik) – eng yuqori, ta’riflab bo‘lmaydigan daraja; 2) Nous – sof aql yoki idrok darajasi; 3) Ruh (yoki ruhlar) darajasi; 4) Sezgi bilan idrok qilinadigan dunyo; 5) Materiya – barcha yomonliklarning sababi.

Plotinning “Biz o‘zimizga qaytishimiz kerak. O‘zimizga qaytganimizda esa, o‘zimizni hamma narsaning manbai – Yagona bilan bog‘lashimiz mumkin” degan g‘oyasi uning falsafasining asosiy mazmunini ifodalaydi. Ushbu g‘oyaga quyidagicha

<sup>16</sup> “Skepticism” // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/skepticism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)

<sup>17</sup> “Neoplatonism” // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/Neoplatonism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)

munosabat bildirish mumkin: Plotin insonning ichki dunyosiga, o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu g'oya zamonaviy ta'limda o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini ochish, o'z ichki dunyosini anglash va rivojlantirishga yo'naltirilgan gumanistik yondashuv bilan uyg'unlashadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini, o'z qadr-qimmatini anglashni rivojlantirishda Plotin g'oyalaridan foydalanish mumkin.

#### Antik falsafada insonparvarlik va substansionallikning sintezi

Antik falsafada shakllangan insonparvarlik va substansionallik g'oyalari bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida rivojlangan. Har bir faylasuf yoki falsafiy maktab insonning mohiyati va uning dunyodagi o'rni haqida o'ziga xos tushunchani shakllantirgan. O'zbek faylasufi U.I.Soatov ta'kidlaganidek, "Antik falsafaning asosiy xususiyati uning insonni kosmosning markaziga qo'yganidir. Bu esa keyingi barcha Yevropa falsafasining insonparvarlik an'alariga asos bo'lgan"<sup>18</sup>.

Quyidagi jadvalda antik falsafaning asosiy vakillari va ularning insonparvarlik hamda substansionallik haqidagi qarashlari qiyosiy ko'rinishda keltirilgan:

<b>Faylasuf/ma ktab</b>	<b>Insonparvarlik g'oyasi</b>	<b>Substansiya haqidagi tushuncha</b>
Suqrot	"O'zingni angla", fazilat = bilim	Insonning ma'naviy o'zagi – ruh
Aflotun	Ruhning tanadan ustunligi, adolatli jamiyat	G'oyalar olami – haqiqiy substansiya
Arastu	"Inson soyosiy hayvondir", evdemonizm	Materiya va shakl birligi; birinchi substansiya
Epikurchilik	Zavq – baxtning asosi, do'stlik	Atomlar va bo'shliq – borliq asosi
Stoitsizm	Tabiat bilan uyg'unlik, fazilat – yagona yaxshilik	Logos – ilohiy aql
Skeptitsizm	Hukmdan voz kechib, xotirjamlikka erishish	Bilish mumkin emas – substansiyani bilishga shubha
Neo-aflotunizm	Ruhning Yagona bilan birlashishi	Yagona – barcha substansiyalarning manbai

<sup>18</sup> Soatov, U.I. Antik falsafada inson muammosi // Falsafa va huquq, 2008, 3-son. – B. 78.

Xulosa qilib aytganda, antik falsafa insonparvarlik va substansionallik tushunchalarining shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Suqrot insonning o'zini bilishi va ma'naviy tayanch nuqtalarini topishning ahamiyatini, Aflotun moddiy dunyodan g'oyalar olamiga ko'tarilish va inson ruhining abadiy substansiyasini, Arastu substansiyaning murakkab tuzilishi (materiya va shakl) hamda insonning ijtimoiy mohiyatini, Epikur inson baxti va zavqning ta'limotdagi o'rnini, stoiklar taqdirga bo'ysunish va ichki erkinlikni, skeptiklar bilish chegaralarini, neo-aflotunchilar esa ruhning yuksalish yo'llarini yoritib bergan.

Bu faylasuflarning barchasi o'z ta'limotlarida insonni kosmosning markaziga qo'ygan va uning baxti, erkinligi va kamoloti haqida fikr yuritgan. Ushbu g'oyalar keyingi pedagogik tizimlarning, xususan, inson ma'naviyatini rivojlantirish va uning shaxs sifatida substansial shakllanishiga qaratilgan ta'lim jarayonlarining nazariy asosini tashkil etadi. Zamonaviy ta'limda antik falsafaning insonparvarlik g'oyalaridan foydalanish o'quvchilarda axloqiy ongini, tanqidiy fikrlashni, o'z-o'zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Epicureanism" // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/Epicureanism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)
2. "Neoplatonism" // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/Neoplatonism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)
3. "Skepticism" // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/skepticism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)
4. "Stoicism" // Encyclopædia Britannica Online. – 2024. – URL: <https://www.britannica.com/topic/Stoicism> (murojaat sanasi: 15.05.2026)
5. Aristotel. Nikomax etikasi / Tarjimon va izohlar muallifi H.Hoshimov. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 320 b.
6. Edvords, F. Ancient Stoicism And Rational Psychology // American Humanist Association, 1995. – (<https://americanhumanist.org/what-is-humanism/ancient-stoicism-rational-psychology/>)
7. Epiktet. Qo'llanma / Yunon tilidan tarjimon A.G'ulomov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 128 b.
8. Epikur. Meneveyga maktub / Yunon tilidan tarjimon T.Mahmudov. – Epikur. Epikurning asosiy aforizmlari asarida. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2000. – B. 34-36.
9. Epikur. Meneveyga maktub / Yunon tilidan tarjimon T.Mahmudov. – Epikur. Epikurning asosiy aforizmlari asarida. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2000. – B. 34-35.
10. Gadamer, G. Platon dialektik etikasi / Nemis tilidan tarjimon S.Ahmedov. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1986. – B 45.

11. Krissman, Z. "The Cartoon History of Humanism, Episode 1: Epicurus and the Right to Party" // The Humanist, 2014. – ([https://thehumanist.com/arts\\_entertainment/humor/the-cartoon-history-of-humanism](https://thehumanist.com/arts_entertainment/humor/the-cartoon-history-of-humanism))
12. Long, A.A. Ellinistik falsafa: stoiklar, epikurchilar, skeptiklar / Ingliz tilidan tarjimon M.Mirzaahmedov. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006. – B 67.
13. Mark Avreliy. O'zim haqimda / Lotin tilidan tarjimon N.Komilov. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1991. – 176 b. (Mark Avreliy, O'zim haqimda, 6-kitob, 6-band)
14. Piette, A. Parmenides, Plato, Aristotle: Essay on the foundations of an existential anthropology // Agathos: An International Review, Volume 15, Issue 1 (28): 7-22, 2024. – P 8.
15. Platon. Faydr / Yunon tilidan tarjimon A.Safarov. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005. – 144 b.
16. Rassel, B. G'arb falsafasi tarixi / Ingliz tilidan tarjimon H.Nazarov. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. – 880 b.
17. Soatov, U.I. Antik falsafada inson muammosi // Falsafa va huquq, 2008, 3-son. – B. 78.
18. Xayrullayev, M. Qadimgi Yunon falsafasi tarixi / Mas'ul muharrir A.Shermuhamedov. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2001. – B 112.